

## NUTQNING IJODIY VOQELANISHIDA LUG'AVIY BIRLIKLAR VAZIFADOSHLIGI

**Abdullayev Davronbek**

*Qoraqalpoq davlat universiteti, f.f.f.d., (PhD)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada nutqning ijodiy voqelanishida lug'aviy birliklarning vazifadoshligi haqida fikrlar bildirib o'tilgan. Lug'aviy birliklarning vazifadoshligi, turlari va nutqiy vaziyatda voqelanishi haqida mulohaza yuritilib, tegishli taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *nutq, ijod, lug'aviy birlik, vazifadoshlik, ibora, maqol, matal, frazeologiya.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается роль лексических единиц в творческом развитии речи. Были рассмотрены функции, виды и встречаемость лексических единиц в речевой ситуации, даны соответствующие предложения и рекомендации.*

**Основные понятия:** *речь, творчество, лексическая единица, задание, словосочетание, пословица, язык, фразеология.*

**Abstract:** *This article discusses the role of lexical units in the creative development of speech. The functions, types and occurrence of lexical units in the speech situation were discussed, and relevant suggestions and recommendations were given.*

**Basic concepts:** *speech, creativity, lexical unit, task, phrase, proverb, language, phraseology.*

Ilmiy manbalarda ibora nutqqa aniqlik, yorqinlik, ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik va betakrorlik kiritishi e'tirof etilgan. To'g'rirog'i, badiiy mushohadaning fusunkor tabiati – tilning ishlanganlik darajasi, ya'ni ifoda mukammalligi frazema tabiatini belgilaydi. Binobarin, barqaror lug'aviy birliklar umumxalq so'zlashuv uslubidan ijodiy talqinga o'tadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Shu tariqa, tushuncha nutqiy-lisoniy munosabat yaxlitligini umumlishtiradi. Unda ma'no o'zgarishi, hayotiy asos va til munosabati uyg'unlashadi. Millat shuuridan o'sib chiqadigan muhokama jarayoni badiiy nutq hodisasini hosil qiladi. Vaholanki, kommunikativ aloqada hissiy idrok va aqliy tajriba bir-birini mantiqan to'ldiradi.<sup>1</sup>

Fanda transformatsiya (lot. transformatio – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) hodisasi genetika faniga mansub atama hisoblanib, hujayralarda yot DNK paydo bo'lishi bilan vujudga keladigan irsiy o'zgarish jarayonini ifodalaydi. Unda o'ziga xoslik va tafovut aloqaga kirishadi hamda uchinchi gen maydonga chiqadi. Sifat jihatdan takomillashgan individ ikkala gen faol ko'rsatkichlarini o'zida jamlaydi. Lingvistik nuqtai nazardan esa bu

<sup>1</sup>Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. - Тошкент: Фан, 1983. -88 6 б.

istiloh ustama ma'noni ko'chirish usuli sifatida qo'llaniladi. Unda shakl, mazmun va vazifa tayanch markaz vazifasini o'taydi. Zotan, "til elementlarining transformatsiyalanishi natijasida leksik ma'noni grammatik ma'noga transformatsiya qilish (ko'chirish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma'nosining so'z ma'nosiga transformatsiyasi asosida esa leksikalizatsiya hodisasi yuzaga kelishi qayd qilingan. Shuningdek, so'z birikmasi va frazeologik birliklarning tarkibiy va ma'noviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi. Iqtibosda bir nechta jihat e'tiborni tortadi: birinchidan, ma'no ko'chirish yo'sini grammatik – leksik – frazeologik mantiq izchilligida amalga oshadi; ikkinchidan, shakl, mazmun va uslub transformatsiyasi birikmaning uzual hamda okkazional qo'llanilish doirasini hosil qiladi; uchinchidan, bu jarayonda sintaktik tanlov va mustaqil birikuv bir-birini talab qiladi. Shu jihatdan, transformatsiyada leksik ma'no nisbiyligi semantik ma'no o'zgaruviga zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, frazeologiyaning nazariyasi asoschisi shveytsar olimi Sharl' Balli (1865 - 1947) sanaladi. Tilshunos so'z birikmalarini "Stilistika ocherki" va "Frantsuz uslubiyati" asarlarida muayyan tizimga soladi. Ikkala risolada ham iboralarga maxsus bob ajratilgan. Birinchi tadqiqotda tilshunos so'z birikmalarini shartli ravishda to'rt guruhga ajratadi:

1) erkin so'z birikmalari (les groupements libres), unda shakllanishdan so'ng o'z barqarorligini yo'qotgan so'z birikmalari o'rin olgan;

2) odatiy birikmalar (les groupements usuels), ya'ni komponentlararo aloqada nisbatan daxlsiz so'z birikmalari, masalan, une grave maladie –jiddiy dard (une dangereuse, serieuse maladie – xavfli, jiddiy dard);

3) frazeologik qator (les series phraseologiques), so'z qatlamlari, unda barqaror so'z birikmalarining xos ma'nodoshligi aks etadi. Xususan, remporter une victoire – zafar quchmoq, (courir un danger) – xavfni bartaraf etmoq. Bu guruhda aks etgan birikmalar bir-biriga nisbatan tenglikka asoslanadi;

4) frazeologik birliklar (les unites phraseologiques), unda o'z mohiyatini yo'qotgan holda yaxlit ifoda mazmuniga ega bo'lagan birliklar aks etadi.<sup>2</sup>

Ayon bo'ladiki, frazeologik birlik o'zgarimas belgi-xususiyat hosilasi, unda ijodiy tanlov cheklangan bo'lib, asosan, ifoda qo'lami birinchi o'ringa chiqadi. Shunga qaramasdan, o'zbek tilidagi ijodiy frazema tahlili ma'no, shakl va ifoda qo'lami xususiyatlariga muvofiqligini ta'kidlash joiz: doimiy o'zgarimas belgi o'z-o'zicha ham, materiyalararo uyg'unlikda ham somatik talqin kategorial, aniqlovchi, farqlovchi va taqsimlovchi sifat darajasini belgilab bera olmaydi. Tasvir yangilanishi fiziologik holatdan badiiy mohiyatga ko'chadi. Shakl barqarorligi va ma'no siljishi yuqoridagi istiloh tavsifini aniqroq izohlashga yordam beradi. Bu shakldagi yorqinlik formal nisbatni mazmun ko'chishiga qarshilantirish vositasida amalga oshadi.

<sup>2</sup> Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). НДА. -Тошкент, 2006.-21 б.

O‘z navbatida, ijodiy belgi yetakchi lingvistik mohiyatining atributi hisoblanadi. Unda “materiya” mohiyati hamisha ma’no yaxlitligiga tayanadi. Yangi ma’no tarmog‘i hosilasi so‘zda ma’no ko‘chimi ko‘lami sifatida namoyon bo‘lib, bir hodisa nomi bilan ikkinchisiga nisbat beriladi. So‘z ifodasidagi ma’no ko‘chishi voqelik mushtarakligi yoxud belgi jamlanishiga yo‘naltiriladi, unda barcha ma’no qatlamlari birlashadi. Ko‘p ma’noli bo‘lishiga qaramay, so‘z semantik birlikka intiladiki, natija o‘laroq tushunchaning semantik strukturasi shakllanadi. So‘zdagi nutqiy daraja ko‘rsatkichi ma’noning nisbiy tafovuti polisemiya hodisasini hosil qiladi. Semantik struktura shakllanish qonuniyatlari aynan ichki mohiyat kengayishini taqozo etadi.

Iborada ma’no tugalligiga mantiqiy ta’kid yuklanadi. Xususiyatning shaklda kengayishi frazema tabiatini belgilaydi. Ma’no bog‘lami barqarorligi istilohning o‘ziga xosligini ta’minlaydi. To‘g‘rirog‘i, turg‘un so‘z birikmalarida asosiy e’tibor materiyaga emas, balki ma’no yaxlitligiga qaratiladi. Bir sintaktik uyaga birlashadigan frazemalarda so‘z o‘z ma’no erkinligini yo‘qotadi.

So‘z birikmalarining nutqiy talabida grammatik qoida murakkab birikuv tizimiga ega ijodiy birikmalar, garchand, mushohada mantig‘i talabiga tayansa-da, yaxlit birliklar sanaladi, ayni paytda, frazeologik konstruktsiya u yoki bu qirrani oydinlashtiradi, har bir so‘z yakka holda emas, balki nutqda yaxlit tarzda voqe bo‘ladi. Xususan, “tilga kirmoq” iborasi, yosh xususiyatiga dahldor ravishda matnda aniq ma’no kasb etadi. Go‘dakning tilga kirishi fiziologik jarayon. Kamgap insonlarga nisbat berilganda, iboraning ma’no ifodasi kengayadi. Solishtiring: “Nodir aka, deya bir mahal tag‘in tilga kirdi Nozima, - Men sizga xat yozgandim”. (*N. Ismoilov. “Baxtning olis manzili”*).

Tilga kirmoq – nutqqa ega kishining so‘zlashi, indamay yurgan kishi gapiradigan bo‘lib qoldi. Shunday ekan, lug‘aviy yaxlitlikdagi munosabat frazema tabiatini belgilaydi. Ba’zi olimlar “frazeologizm” istilohini so‘z birikmalari tasavvuri bilan bog‘lashadi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologik birikuv tizimi grammatik jihatdan so‘z birikmasidan katta bo‘lmasligini qayd etadi. Bu holat frazema tabiatini frazeologik birlik, frazeologik shakl sifatida belgilashga olib keladi. Bizningcha, mazkur ajratish nazariy chalkashliklarga olib keladi. Negaki, ifoda madaniyati uzvi – frazeologiya semantik, morfologik-sintaktik va uslubiy farqlanishga ega tushuncha. Unda ibora doimiy o‘zgarmas belgi-sifat-xususiyat yig‘indisiga aylanadi.

Ayni paytda, matal, maqol va hikmatli so‘zlarni frazeologik konstruktsiyaga kiritmaslik maqsadga muvofiq keladi. Birinchidan, frazema grammatik aloqani ta’min etadigan boshqaruv, moslashuv va bitishuv usullariga tayanadi, ikkinchidan, aforizm tabiati (mantiqiy tugal gapga yaqinlik) so‘z birikmasidan yuqori turadi, uchinchidan, iborada so‘zning semantikasi hamda sintaktik imkoniyati jiddiy evrilishlarga uchraydi. Shunday ekan, frazemada so‘z birikmalarining nisbiy barqarorligi kuzatilsa, matal, aforizm hamda maqollarda esa to‘liq semantik barqarorlik saqlanishi seziladi. Frazeologizm, xususan, nutqiy polisemantik frazalar o‘ziga xos kategorial xususiyatlarga ega: bu holat, bir tomondan, uni mustaqil til birligi sifatida anglashga zamin hozirlasa, ikkinchi tomondan, iborani boshqa

lisoniy konstruktsiyalardan farqlash imkonini beradi. Mazkur sifat ko'rsatkichini shartli ravishda quyidagi tizimga solish mumkin:

1. Lug'aviy ma'no.
2. Komponentlararo barqaror birikuv.
3. Grammatik kategorial izchillik.<sup>3</sup>

Frazeologik shaklda lug'aviy ma'no hamda grammatik kategoriya mazmun tomonni qamrab olsa, komponentlararo ichki aloqa barqarorligi shakl darajasini namoyon etadi. Aslida shakl va mazmun birligi (dixotomiyasi) tasavvurdan tasvirga, tasvirdan tahlilga, tahlildan talqinga, talqindan ifodaga o'tib turadi. Shu bois, ularning dialektik munosabatini inkor etish sog'lom mantiqqa zid. Negaki, polisemik xarakterga yo'naltirilgan tugal ijodiy qo'llanishda formal barqarorlik ma'no ta'kidini namoyon qiladi.<sup>4</sup>

Frazeologik birlik tilda mavjud lug'aviy tizim bo'shliqlarini to'ldiradi, biroq ijodiy frazema inson tomonidan anglangan voqelik qirralarini to'liq tasavvur qilishga imkoniyat yaratmaydi, balki predmet, materiya, xususiyat, vaziyat va holatga xos ma'no qirralarini ta'kidlash bilan cheklanadi. Aslida tushuncha ham ma'no, ham ong hosilasi sanaladi.

Xulosa qilsak, polisemiya hodisasi tilning ham nazariy, ham amaliy sarhadlarini birlashtiradigan hodisa sanaladi. Bu hodisaning nazariy tomoni tilning semantik jihatdan taraqqiyotini, davrlar o'tishi bilan til boyligi oshib borayotganini chuqurroq anglashga yordam beradi. Polisemiyaning amaliy tomoni esa so'z va iboralarni lug'atlarda, darslik va qo'llanmalarda izohlash, turli xil lug'atlar tuzish, tarjima jarayonini yanada takomillashtirishda batafsil va yorqinroq tarzda namoyon bo'ladi. Shu kungacha tilshunoslik sohasida lug'aviy, grammatik va frazeologik polisemiya masalalariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. - Тошкент: Фан, 1983.-88 б.
2. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). НДА. -Тошкент, 2006.-21 б.
3. Абдуллаев Ш. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги «бош қотирмоқ» ибораси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005, 1-сон, 80-82-бетлар.

<sup>3</sup> Абдуллаев Ш. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги «бош қотирмоқ» ибораси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005, 1-сон, 80-82-бетлар.

<sup>4</sup> Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов (на материале сатирического журнала «Муштум»), Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент, 1968. -23 с.

4. Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов (на материале сатирического журнала «Муштум»), Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент, 1968. -23 с.

**INTERNET MATERIALLAR:**

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.natlib.uz>
3. <http://www.filolog.uz>